



MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti

ORCID: 0009-0005-7203-4044

musirmonkholmurodov1@gmail.com

Annotatsiya. Tijorat banklari aktivlar portfellarining sifatini ta'minlash ularning moliyaviy barqarorligi va likvidiligini ta'minlashning zarurligi hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklari aktivlarini samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: bank, bank aktivlari, tavakkalchilik, milliy iqtisodiyot, bank portfeli, aktivlar sifati, bank tizimi, kredit portfeli, investitsiya.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ АКТИВОВ ПРОБЛЕМЫ БАНКОВ НАШЕЙ СТРАНЫ

Холмуратов Мусурмон Авлакулович

Ташкентский университет прикладных наук

Аннотация. Обеспечение качества портфелей активов коммерческих банков, необходимость обеспечения их финансовой устойчивости и ликвидности рассматривается как один из актуальных вопросов. В данной научной статье предпринята попытка разработать научное предложение и практические рекомендации по способам повышения эффективности активов коммерческих банков.

Ключевые слова: банк, банковские активы, риск, национальная экономика, банковский портфель, качество активов, банковская система, кредитный портфель, инвестиции.

INCREASING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL ASSETS PROBLEMS OF OUR COUNTRY BANKS

Kholmuradov Musurmon Avlakulovich

Tashkent University of Applied Sciences

Abstract. Ensuring the quality of asset portfolios of commercial banks, the need to ensure their financial stability and liquidity is considered one of the current issues. In this scientific article, an attempt was made to develop a scientific proposal and practical recommendations on ways to increase the efficiency of the assets of commercial banks.

Keywords: bank, bank assets, risk, national economy, bank portfolio, asset quality, banking system, loan portfolio, investment.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligida "Tijorat banklarining aktivlari — kredit, mikrokredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, hisoblangan foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulki, bo'lib-bo'lib sotilgan mol-mulk, balansdan tashqari buyumlar (qaytarib bo'lmaydigan)) kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) va boshqa barcha talablar, hisoblangan foizlardan tashqari". Aktivlar bilan bog'liq munosabatlarning mavjudligi aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni keltirib chiqaradi (Farmon, 2020).

Dunyoning barcha mamlakatlarida aholining yirik qismi, davlat va davlat tashkilotlari, korporativ mijozlar va boshqa barcha tashkilotlar tijorat banklarining xizmatlaridan foydalanadilar. Iqtisodiy tamoyil va me'yoriy qonunchilikka amal qilgan holda faoliyat ko'rsatayotgan bank tizimi iqtisodiyotning rivojlanishini va milliy valyutaning barqarorlashuvini ta'minlaydi.

Albatta, bank faoliyati samaradorligi va iqtisodiy tamoyillarga amal qilishi qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p foyda ko'radi va natijada barqaror moliya institutga aylanadi. Shuning uchun bank faoliyati samaradorligini oshirish har qanday ijtimoiy rivojlanish darajasida har bir davlatda muhim vazifa hisoblanadi.

Moliyaviy institut sifatida bank faoliyati likvidlilik holatini ta'minlab, risklarni kamaytirib, qo'yilma egalari va aksiyadorlarning huquqlarini saqlagan holda yuqori daromad olishga qaratilgan faoliyatdir. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish bosqichida bank faoliyati samaradorligi masalasi o'zgacha ma'no kasb etadi.

Ushbu masalalarning aksariyat qismi banklarning barqaror resurs bazasiga ega bo'lishi, daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirgan holda bank foydasini oshirish hamda bu orqali samaradorlikni oshirish orqali yechimga ega bo'lish mumkin.

Dunyo mamlakatlarida tijorat banklarining kredit va qimmatli qog'ozlar portfellarining sifatini oshirish, xususan, kreditlarning daromadlilik va risk darajasi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, yuqori likvidlik va korporativ qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash masalalari ilmiy asosda tadqiq qilinmoqda (Mirziyoev, 2019).

Ammo, mazkur tadqiqotlarda moliyaviy risklar darajasi yuqori bo'lgan, banklarning aktivlar portfelleri diversifikatsiya darajasi past bo'lgan sharoitda aktivlar portfelinin sifatini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari ochib berilmaganligi tijorat banklari aktivlar portfelleri sifatini oshirish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarining aktivlari portfellarining sifatini oshirish va tartiblarini takomillashtirish mavzusiga oid bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bank xizmatlari bozorida mijozlarning ehtiyojlari va ularni qondirish, shuningdek bank xizmatlari kabi masalalarni tadqiq qilish, tadqiqotda tahlil qilingan muammoning nazariy va amaliy jihatlari ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida mavjud bo'lgan konsepsul yondashuvlarga asoslanadi, jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlar – Lavrushin (2014), mahalliy iqtisodchi olimlar Qoraliev, Norqobilov (2009), Sayfiddinov, Qulliev (2006) larning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Sayfiddinovning (2006) fikricha, bank aktiv operatsiyalari samaradorligining uslubiy asoslarining umumiy jihatlari o'rganish, "bank aktivlari" va "bank aktiv operatsiyalari"ni bank operatsiyalari samaradorligini aniqlashning asosiy mezonlari sifatida tasniflash, "bank aktivlari samaradorligi" tushunchasini aniqlashtirish maqsadga muvofiq edi. Shu munosabat bilan mamlakat iqtisodchilari tijorat banklari aktivlarining xususiyatlari, likvidlik va tavakkalchilik darajasi, shuningdek daromadlari bo'yicha guruhlariga bo'linadi deb fikrlarini bayon etgan.

Qullievning (2015) fikricha, ushbu masalalarni hal qilishga individual yondashuv tijorat banklari aktivlarining real qiymatini aniqlashga va muammoli aktivlar hajmini kamaytirishning kompleks mexanizmini ishlab chiqishga yordam beradi deb fikrlarini bayon etgan. Xususan, bugungi kunda banklar amaliyotida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari asosida stress testlari orqali bankning moliyaviy holatini baholashning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu usul likvidlik darajasi, operatsion faoliyat, bozor qiymati, boshqaruv va xatarlarni baholash tizimi kabi omillarning aktivlar samaradorligiga sezilarli ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

Qoraliyev, Norqobilovning (2009) fikricha, O'zbekistonda ham tijorat banklarining kreditlari iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. "Istiqbolli investitsiya loyihalarini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kengaytirish makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti sifatida e'tirof etilgan" deb fikrlarini bayon etgan.

Lavrushinning (2014) fikricha, xalqaro bank amaliyotida aktivlar samaradorligidagi turli xil nomutanosibliklar xalqaro bank sektoridagi inqirozga va xalqaro iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib keladi. O'z navbatida, bir qator rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishiga, ishsizlikning o'sishiga va banklarning bankrotligiga olib keldi. Shu nuqtai-nazardan, xalqaro miqyosda bank tizimining mexanizmlarini o'rganish, xalqaro bank aktivlarini shakllantirish va taqsimlash tamoyillarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir deb fikrlarini bayon etgan.

Qoraliyev va Norqobilovlarning (2009) fikricha, Shu munosabat bilan O'zbekistonning ichki moliya bozorini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mahalliy bozor sig'imi kichik va mahalliy kapital bozori rivojlanmagan va mamlakatda xususiy sektorning spekulativ qarzlarni ta'minlash uchun faol bozor mavjud emas. Hukumat ishtirokining yuqori darajasi, huquqni muhofaza qilish organlarida shaffoflik va tengsizlikning yo'qligi tufayli bank tizimiga va mamlakatga sarmoya kiritish xavfi yuqori. Aholining xarid qobiliyatining pastligi majburiyatlarni jalb qilish va bank mahsulotlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi deb fikrlarini bayon etgan.

O'zbekistonda ham tijorat banklarining kreditlari iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. "Istiqbolli investitsiya loyihalarini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kengaytirish makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti sifatida e'tirof etilgan" (Farmon, 2017).



Biroq, respublikamizda tijorat banklarining aktivlari portfellarining sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, banklar uzoq muddatli kreditlarining resurs ta'minoti masalasi hal qilinmagan. "Banklarga qo'yilgan depozitlarning 70 foizi qisqa muddatli bo'lgani holda, kreditlarning 90 foizi uzoq muddatga berilgan" (Mirziyoev, 2019).

Shuningdek, respublikamiz tijorat banklarida transformatsiya riski chuqurlashib ketgan. Bundan tashqari, mamlakat tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalari rivojlanmagan.

"Bugungi kunda, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining brutto aktivlar hajmidagi salmog'i atigi 1,1 foizni tashkil etadi"¹⁰ va ushbu ko'rsatkich banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarining rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Xalqaro bank aktivlari samaradorligidagi turli xil nomutanosibliklar xalqaro bank sektoridagi inqirozga va xalqaro iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida,

¹⁰ Tijorat banklari jamlanma balansi. www.cbu.uz

bir qator rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishiga, ishsizlikning o'rishiga va banklarning bankrotligiga olib keldi.

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro miqyosda bank tizimining mexanizmlarini o'rganish, xalqaro bank aktivlarini shakllantirish va taqsimlash tamoyillarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishimizni yoritishda taqqoslash, analiz, sintez, iqtisodiy tahlil, analitik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, bank xizmatlari ko'lamini kengaytirishga qaratilgan olimlarning fikrlari va soha vakillarining iqtisodiy qarashlari, ularning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish va jarayonlarga tizimli yondashuv orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Shu munosabat bilan O'zbekistonning ichki moliya bozorini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mahalliy bozor sig'imi kichik va mahalliy kapital bozori rivojlanmagan va mamlakatda xususiy sektorning spekulyativ qarzlarni ta'minlash uchun faol bozor mavjud emas. Hukumat ishtirokining yuqori darajasi, huquqni muhofaza qilish organlarida shaffoflik va tengsizlikning yoqligi tufayli bank tizimiga va mamlakatga sarmoya kiritish xavfi yuqori. Aholining xarid qobiliyatining pastligi majburiyatlarni jalb qilish va bank mahsulotlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Tijorat banklarining kredit portfelining sifatini oshirishda kreditlarning resurs ta'minoti muhim o'rin tutadi, bunda banklar kreditlari uchun resurs ta'minotining eng barqaror qismi bo'lib, muddatli depozitlar va jamg'arma omonatlari hisoblanadi.

Tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyotini takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omil bo'lib, banklarda uzoq muddatli resurslarni yetishmasligi.

Banklarning investitsion kreditlar berish imkoniyatini oshirish uchun, birinchi navbatda, ularning depozit bazasining yetarliligini ta'minlash lozim.

Xususan, bugungi kunda banklar amaliyotida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari asosida stress testlari orqali bankning moliyaviy holatini baholashning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu usul likvidlik darajasi, operatsion faoliyat, bozor qiymati, boshqaruv va xatarlarni baholash tizimi kabi omillarning aktivlar samaradorligiga sezilarli ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqotimiz davomida bank operatsiyalari samaradorligining uslubiy asoslarining umumiy jihatlarni o'rganish, "bank aktivlari" va "bank aktivlari operatsiyalari"ni bank operatsiyalari samaradorligini aniqlashning asosiy mezonlari sifatida tasniflash, "bank aktivlari samaradorligi" tushunchasini aniqlashtirish maqsadga muvofiq edi.

Shu munosabat bilan mamlakat iqtisodchilari tijorat banklari aktivlarining xususiyatlari, likvidlik va tavakkalchilik darajasi, shuningdek daromadlari bo'yicha guruhlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligida "tijorat banklarining aktivlari — kredit, mikrokredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, hisoblangan foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulki, bo'lib-bo'lib sotilgan mol-mulk, balansdan tashqari buyumlar (qaytarib bo'lmaydigan)) kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) va boshqa barcha talablar, hisoblangan foizlardan tashqari. Aktivlar bilan bog'liq munosabatlarning mavjudligi aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni keltirib chiqaradi.

Bizning fikrimizcha, bank aktivlari samaradorligini oshirish nafaqat bank tizimini, balki butun iqtisodiyotni rivojlantirish masalasidir. Ushbu jarayonda tijorat banklarida aktivlar samaradorligining pasayishi vakillik hisob varaqlarida resurslarning etishmasligiga, bankning moliya bozorida mavqening pasayishiga, mijozlarning bankka bo'lgan ishonchsizligi va noroziligining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Banklardagi aktivlarning buzilish darajasining oshishi iqtisodiyotning turli sohalarida ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida ishsizlikning ko'payishiga olib keladi. Bundan tashqari, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy inqirozning bank amaliyotiga salbiy ta'siri ma'lum bir mamlakat yoki mintaqa bilan cheklanib qolmay, balki butun jahon iqtisodiyotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shuning uchun bizning tadqiqotlarimiz doirasida bank operatsiyalari samaradorligining uslubiy asosining quyidagi muhim yo'nalishlari aniqlandi:

1. Bankning faol operatsiyalari samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar, talablar va ko'rsatkichlarni aniqlashtirish;

2. Tizimlashtirish, bankning faol operatsiyalari samaradorligiga to'sqinlik qiluvchi muammoli jihatlar va omillarni baholash va ularni bartaraf etish yo'llari;

3. Ijtimoiy-iqtisodiy asoslarni ta'kidlab, bankning makro va mikro darajadagi faol operatsiyalari samaradorligini ta'minlashning ahamiyati;

4. Bankning faol operatsiyalari samaradorligini ta'minlashning asosiy tamoyillarini aniqlash va ularni amalga oshirish shartlarini aniqlash;

5. Bank sohasidagi xorijiy tajribani o'rganish orqali bank operatsiyalari samaradorligini baholash choralari, usullari va vositalari va yondashuvlarini tizimlashtirish.

Tadqiqotimiz davomida bank operatsiyalari samaradorligining uslubiy asoslarining umumiy jihatlarini o'rganish, "bank aktivlari" va "bank aktivlari operatsiyalari" ni bank operatsiyalari samaradorligini aniqlashning asosiy mezonlari sifatida tasniflash, "bank aktivlari samaradorligi" tushunchasini aniqlashtirish maqsadga muvofiq edi".

Shu munosabat bilan mamlakat iqtisodchilari tijorat banklari aktivlarining xususiyatlari, likvidlik va tavakkalchilik darajasi, shuningdek daromadlari bo'yicha guruhlarga bo'linadi.

Bizning fikrimizcha, ushbu masalalarni hal qilishga individual yondashuv tijorat banklari aktivlarining real qiymatini aniqlashga va muammoli aktivlar hajmini kamaytirishning kompleks mexanizmini ishlab chiqishga yordam beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar uchun qisqa muddatli kreditlar berish uzoq muddatli investitsion kreditlar berishga qaraganda afzal bo'lib, yuqori daromadlilik va past risk darajasi bilan ajralib turadi. Bizning fikrimizcha, ushbu masalalarni hal qilishga individual yondashuv tijorat banklari aktivlarining real qiymatini aniqlashga va muammoli aktivlar hajmini kamaytirishning kompleks mexanizmini ishlab chiqishga yordam beradi.

Xususan, bugungi kunda banklar amaliyotida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari asosida stress testlari orqali bankning moliyaviy holatini baholashning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu usul likvidlik darajasi, operatsion faoliyat, bozor qiymati, boshqaruv va xatarlarni baholash tizimi kabi omillarning aktivlar samaradorligiga sezilarli ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

Xalqaro bank aktivlari samaradorligidagi turli xil nomutanosibliklar xalqaro bank sektoridagi inqirozga va xalqaro iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, bir qator rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishiga, ishsizlikning o'sishiga va banklarning bankrotligiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro miqyosda bank tizimining mexanizmlarini o'rganish, xalqaro bank aktivlarini shakllantirish va taqsimlash tamoyillarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Shu munosabat bilan O'zbekistonning ichki moliya bozorini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mahalliy bozor sig'imi kichik va mahalliy kapital bozori rivojlanmagan va mamlakatda xususiy sektorning spekulyativ qarzlarni ta'minlash uchun faol bozor mavjud emas. Hukumat ishtirokining yuqori darajasi, huquqni muhofaza qilish organlarida shaffoflik va tengsizlikning yo'qligi tufayli bank tizimiga va mamlakatga sarmoya kiritish xavfi yuqori. Aholining xarid qobiliyatining pastligi majburiyatlarni jalb qilish va bank mahsulotlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Xalqaro talablarga, shu jumladan muvofiqlik tizimi, moliyaviy hisobot va korporativ boshqaruv standartlariga muvofiqlik darajasi past. O'zbekistonda kreditlash amaliyoti va anderryayting standartlari jahon standartlaridan orqada qolmoqda. Davlat ko'pincha kreditlash qarorlarini qabul qilish jarayoniga aralashadi. Markaziy bank tizimning shaffofligini oshirishga qaror qildi, shu jumladan tariflarni pasaytirish va bir qator bank xizmatlari uchun komissiyalarni bekor qilish bo'yicha tavsiyalar. Moliya institutlarining moliyaviy barqarorligini oshirishga, omonatlarni kafolatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan yangi standartlarni joriy etish (Sharh, 2022).

Bank tizimining investitsiyalarga ta'sirini kamaytirish va ularning jozibadorligini oshirish maqsadida pul-kredit siyosatini liberallashtirish va inflyatsiyaga yo'naltirishni takomillashtirish. Yana bir muammo-banklar va davlat idoralari o'rtasida mahsulotlar bo'yicha hamkorlikning yo'qligi.

Ushbu jarayonlarni takomillashtirish bir qator omillarga asoslanadi: jahon tajribasidagi mavjud modellardan (davlat sektori ishtirokining yuqori darajasi) rivojlanish institutlari orqali moliyaviy oqimlarni taqsimlashga bosqichma-bosqich o'tish, xususiylashtirish va bank tizimini yanada to'liq liberallashtirish. Rossiya tajribasini keltirish mumkin. Yaponiya va Singapurda xususiy va mustaqil banklar, shu jumladan davlat loyihalari rivojlanish institutlarida amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023 yilda mamlakatimizda bank hisob varaqlariga masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar orasida deyarli 3 barobar, 4,3 marta oshgan. jismoniy shaxslar. Duetfastrukturaning rivojlanishi, bank xizmatlarining tarqalishi asta-sekin o'sib bormoqda, ammo aholining katta qismi hali ham asosiy bank mahsulotlari bilan ta'minlanmagan.

Yuqoridagi vazifalarni hal qilish uchun zamonaviy dasturiy ta'minotdan samarali foydalangan holda bank mahsulotlari turlarini kengaytirish va aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish zarur. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda tijorat banklari bir necha yillardan buyon zamonaviy innovatsion dasturiy ta'minot va tizimdagi maxsus platformalar asosida faoliyat yuritib kelmoqda.

Darhaqiqat, mijozlarga xizmat ko'rsatish tajribasini yaxshilash uchun katta ma'lumotlar, ilg'or tahlillar va yangi texnologiyalardan foydalanadigan tashkilotlar kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti bo'lgan ishonch, shaffoflik va daromadni shakllantirish va rivojlantirishlari kerak. Bugungi kunda "bank xizmatlari bozorida zamonaviy FinTech va blockchain texnologiyalarining joriy etilishi moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi".

Yevropa axborot texnologiyalari korporatsiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, kelgusi 5 yil ichida bankning kelajagi uchun to'rtta transformatsion muammo va imkoniyatlar mavjud, shu jumladan mijozlarning keng ehtiyojlarini qondirish; narxlarni optimallashtirish, bunda raqamli raqobat samaradorligi tufayli banklar va kredit uyushmalari nodavlat operatsiyalardan ajratish va aqlli avtomatlashtirishdan foydalanishni o'ylashlari kerak; yangi daromad oqimlarini yaratish; xavfsizlik va muvofiqlashtirish tizimlarining rivojlanishi bularni kamaytirishi mumkin xarajatlar va biznesning o'sishiga olib keladi.

Chakana bank sohasidagi innovatsiyalar hisobot, 2023 tijorat banklari endi iste'molchilar talabini qondirish uchun bulutli texnologiyalar, ilg'or tahlillar va yangi tarqatish alternativallari kabi bulutli texnologiyalardan foydalangan holda raqamlashtirish va innovatsion tashabbuslarni oshirishga e'tibor qaratishlari kerak. Bank sektoridagi innovatsion texnologiyalar kelajakda harakatlantiruvchi kuch bo'ladi, ular bozorda raqobatbardosh bo'lish va bozor ehtiyojlarini qondirish uchun o'zlarini qayta aniqlay oladilar.

Axborot texnologiyalari korporatsiyasi texnologiyalarning biznesga ta'sirini va kelgusi besh yil ichida integratsiya vaqtini hisobga oladigan juda foydali Global bank texnologiyalari

radarini ishlab chiqdi. Shuningdek, IBM (International Business Machines) ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro biznes operatorlari bank sohasiga bulutli (gibrid bulut) hisoblari bilan kirishgan va aksariyat banklar an'anaviy IT, davlat va xususiy bulutlarning optimal aralashmasini qidirmoqdalar.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'grisida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — Toshkent,- № 6 (766). — 32-b.

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'grisida" gi Farmoni. 4-bet

Lavrushin O, Mwengei, (2014). Assessing the Factors Contributing to Non - Performance Loans in Kenyan Banks, *European Journal of Business and Management* 3 (32), 2014.;

Mirziyoev Sh.M. (2019) Banklar endi "O'z aravasini o'zi tortishi kerak". <https://sputniknews-uz.com/economy/20191026/2694075>. 4-bet

Ortiqov O.A., Qulliev I.Ya. (2015) *Bank menejmenti va marketingi. Tafakkur Bo'stoni.* – Toshkent., — 224.

Qoraliyev T.M., Norqobilov S. (2009) "Bank resurslari va ularni boshqarish". Monografiya./ –T.: "Iqtisod-Moliya". -3 bet.

Sayfiddinov I.F., Qulliev I. (2006) "Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish". O'quv qo'llanma./ –T.: "Iqtisod-Moliya".-3 bet.

Sharx (2022) O'zR Markaziy bankining 2022 yil yarim yillik uchun Moliyaviy barqarorlik sharxi, 4-bet.